

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 201_ y.

**5141700 – Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA MEHR
UYG'OTISHNING VOSITA VA USULLARI”**

MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Norkulova Yulduzxon Ibadillayevna**
Ilmiy rahbar: **dots.B.Soatov**

Ishni himoyaga tavsiya etaman **dots.B.Soatov** _____
(imzo)

BMI Maktabgacha ta'lim nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi qig'ilishining qarori bilan (Qaror№_,
_____.201__ y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots.R.Abdurasulov** _____
(imzo)

Jizzax - 2012

A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya fakul'teti "Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti" yo'nalishi bitiruvchisi Norkulova Yulduzxon Ibadillayevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy raxbar

X U L O S A S I

Mustaqillikka erishgan mamlakatimizda yoshlar ta'limini va tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. Kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero yoshlar bizning kelajagimiz biz ularga qanchalik farovon, mamlakatimiz tinch osoyishta bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 ta paragraf, tajriba-sinov ishlari, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, mavzu to'liq yoritib berilgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilishi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, tadqiqotning metodologik asosi ochib berilgan.

Birinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning nazariy –ilmiy asoslari to'g'risida bo'lib, bob nazariy jihatdan ochib berilgan.Ikkinchi bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning mazmuni, shakli va yo'llari haqida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan nazariy qism mazmunli taqdim etilgan. Tajriba –sinov ishi natijasida kerakli tavsiyalar berilgan va xulosalangan.Ish yakunlangan va xulosalangan. Norkulova Yulduzxon tomonidan bajarilgan BMI oliy o'quv yurtlari tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots.B.Soatov

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya
fakul'teti "Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti" yo'nalishi bitiruvchisi
Norkulova Yulduzxon Ibadillayevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni
kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari" mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Tadqiqotchi Norkulova Yulduzxon Ibadillayevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari" mavzusidagi BMI hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero yoshlar bizning kelajagimiz biz ularga qanchalik farovon, mamlakatimiz tinch osoyishta bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, tajriba-sinov ishlari, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, mavzu to'liq yoritib berilgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilishi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, tadqiqotning metodologik asosi ochib berilgan.

Birinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning nazariy –ilmiy asoslari to'g'risida bo'lib, bob nazariy jihatdan ochib berilgan. Ikkinchi bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning mazmuni, shakli va yo'llari haqida fikr yuritilgan.

BMI yakunlangan, kerakli xulosalar va metodik tavsiyalar berilgan. Bitiruv malakaviy ishini DAK huzurida himoya qilishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

D.Tangirova

**Defektologiya
o'qituvchisi**

kafedراسي

**A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya
fakul'teti "Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti" yo'nalishi bitiruvchisi
Norkulova Yulduzxon Ibadillayevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni
kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari" mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero yoshlar bizning kelajagimiz biz ularga qanchalik farovon, mamlakatimiz tinch osoyishta bo'ladi.

Tadqiqotchi Norkulova Yulduzxon Ibadillayevnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari" mavzusidagi BMI hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, tajriba-sinov ishlari, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib, mavzu to'liq yoritib berilgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilishi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, tadqiqotning metodologik asosi ochib berilgan.

Birinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning nazariy –ilmiy asoslari to'g'risida bo'lib, bob nazariy jihatdan ochib berilgan. Ikkinchi bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning mazmuni, shakli va yo'llari haqida fikr yuritilgan.

BMI yakunlangan, kerakli xulosalar va metodik tavsiyalar berilgan. Bitiruv malakaviy ishini DAK huzurida himoya qilishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

G.Turapova

**Jizzax tumani XTBga №3-sonli
"G'uncha" MTM mudirasi.**

M U N D A R I J A:

KIRISH.....

1.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISHNING NAZARIY –ILMIY ASOSLARI.

- 1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari.....
- 1.2. Bolalarni badiy adabiyot bilan tanishtirishga qo'yilgan davlat talablari.....
- 1.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish.....

2.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISHNING MAZMUNI, SHAKLI VA YO'LLARI.

- 2.1. Kitobxonlikka mehr uyg'otishning yo'llari va vositalari.....
- 2.2. Ilg'or tajribalarni umumlashtirish.....

XULOSALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikka erishgan mamlakatimizda yoshlar ta'limini va tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda.

Zero yoshlar bizning kelajagimiz biz ularga qanchalik farovon, mamlakatimiz tinch osoyishta bo'ladi.

Ayniqsa bolalarga atalmish vaqtni matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg'otish ta'lim – tarbiya berishda juda katta ahamiyat va o'rinni egallaydi.

Bu mavzu yuzasidan Yo'ldoshev, Egamov X., Raximov M., Yuldoshev Elar kutubxona ishi, kitoblar fondlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otish ishlrini o'rganish maqsadida biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **"Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning vosita va usullari"** deb nomladik

Tadqiqotning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning mazmunini o'rganish va amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Mavzuga oid pedagogik, ilmiy, psixologik, tarixiy, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning bugungi kundagi holatini kuzatish va o'rganish;
- Metodik tavsiyalar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqotning obekti: maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning mazmuni, shakli metodi va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otish mazmuni va metodik samaradorligi oshadi: agarda

- ta'lim – tarbiya jarayonida bolalarda kitobxonlikka mehr uyg'otilsa;
- tarbiyachilar va ota –onalar bolalarning qiziqishga va xulq – atvoriga mos kitoblardan to'g'ri tanlab foydalanilsa;

Tadqiqotning metodologik asosi:

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi”, “Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasiga qo’yiladigan davlat talablari, Bolajon dasturi sharq allomalarining yosh avlod tarbiyasi va kamoloti to’g’risida qarashlari.

Tadqiqotning metodlari:

- pedagogik va badiiy adabiyotlarni o’rgani;
- kuzatish;
- qiyoslash;
- suhbat;
- pedagogik eksperiment;
- savol –javob, anketa.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

Ota – onalar, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachi, pedagogik kasb –hunar kolleji va oliy maktab talabalari, malaka oshirish kurslari foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Bolalarni kitobxonlikka mehr uyg’otishning mazmuni va tizimini ishlab chiqildi.

Tadqiqotning tarkibiy qismi:

Kirish, 2 bob, 4 – fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ro’xatidan iborat.

1.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISHNING NAZARIY – ILMIY ASOSLARI.

1.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari.

Bolalarni tarbiyalash davlat, ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda.

Zero yoshlar bizning kelajagimio' biz ularga qanchalik ko'p bilim va tarbiya bersak kelajagimiz shunchalik farovon, mamlakatimiz tinch va osoyishta bo'ladi. Bolalar xarakterida shakllanayotgan ilk tushuncha va hissiyotlarni o'z vaqtida ilg'ab olib ularning keyingi amaliy faoliyatiga yordam berish har bir tarbiyachi va tarbiya muassasalarining birinchi navbatdagi vazifasidir.

Mamlakatimizda bola tarbiyasi bilan quyidagi ijtimoiy institutar: oila, davlat tizimidagi ta'lim va tarbiya beruvchi muassasalar, madaniy – ma'rifiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor, kino) ularni o'rab turgan tashqi muhit, o'rtoqlari shug'ullanadi. Ayniqsa bolalarga atalgan vaqtli matbuot, bolalar va o'smirlar kitobi ularga ta'lim va tarbiya berishda juda katta o'rinni egallaydi, busiz haqiqiy insonni tarbiya beruvchi shaxs misolidir.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manbalardan biri kitobdir. Kitob o'qish uchun bo'lib ta'lim- tarbiya muassasalarida muntazam o'qish san'ati bilan tanishadilar.

Tarbiyachi bolalarga tarbiya va bilim berishda asosiy manba bo'lgan matbuot va kitobdan keng foydalanadi. Kitob kichkintoylar fikricha hamma narsani bor, hamma narsaga javob beruvchi vosita sifatida tan olinadi.

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, kitob qanchalik qiziqarli, hissiyotlarga boy bo'lmasin, agar kitobxon qalbiga yetib bormasa, hayajon solmasa, bunday kitoblarning tarbiyaviy ta'siri ham bo'ladi.

Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his-tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas balki ularning his-tuyg'ulariga qaratilmog'i kerak.

His bilishdan oldin bo'ladi, haqiqatni sezmagan kishi uni tushunmaydi, bilmaydi ham...Kattalarga oid bo'lgan nasalar bolalarga ham oiddir, faqat ularni bolalar tushunchasiga muvofiq suratda bayon qilmoq kerak, bu ishning eng muhim tomonlaridan biridir, degan edi. V.G.Belinskiy. tarbiyaviy tizimda o'qishga rahbarlik qilishda himmat - xillik yo'nalishlarda ish olib borilar ekan, tarbiyachi kitobxonni tarbiyalashda doimo yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tarbiyaviy ta'sirini oshirishga harakat qiladi.

Tarbiyaviy tizimning muhim yo'nalishlaridan biri mehnat tarbiyasidir. Bolalar uchun yozilgan barcha kitoblar axloq va odob mavzusi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishdagi tarbiya umumiy tarbiya tizimining bir bo'lagi hisoblanadi va doimo boshqa tarbiyaviy yo'nalishlar bilan birga olib boriladi.

Ayniqsa respublikamiz mutsaqillikka erishgan, yangi qadriyatlar vujudga kelayotgan, milliy istiqlol mafkurasi yaratilayotgan hozirgi davrda bu yo'nalishdagi tarbiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Chunki biz yosh avlodni pok, vijdonli iymonlik, insofli, intizomli, halol odobli qilib tarbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz. Bu murakkab jarayonda kitob vositasida tarbiyalashga katta e'tibor berish zarur.

Ayniqsa kichik yoshdagi bolalar o'ta ta'sirchan va hissiyotga beriladigan bo'ladilar. Bu yoshda kitoblarda yozilgan narsalar, kattalar tomonidan aytilgan nasihatlar tezda qabul qilinadi. Ular o'zlarinikidan ko'ra boshqalarning axloqiy tomonlariga qiliklariga qilgan ishlariga tezda baho beradilar.

Ana shularni e'tiborga olib tarbiyachi **suhbat, ovozli va ifodali o'qish, ertak aytib berish, so'zlab berish kabi tadbirlar, mashg'ulotlar** orqali o'qilgan yoki aytilgan, ertaklar qahramonlarning xilma-xil xislatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, vaziyat va sharoitlarni tushuntirib berar ekan. Shunday xislatlar bolalarning o'zlarida ham borligini aytib o'tadi.

Masalan, bolalarning juda ko'pchilgida uchraydigan maqtanchoqlikning yomonligi va uni nimalarga olib kelishi haqida o'zbek xalq ertaklaridan "maqtanchoq quyon"ni o'qib bersa, halollik, to'g'rillikning afzalligi haqidagi. Ug'ri va to'g'ri ertakgini aytib beradi.

Do'stlik va ayyorlik haqida suhbatlashib, Gulxoniyni "Toshbaqa bilan chayon, "Bo'ri bilan Tulki" ertagini tushuntirib tulki bo'ridan bo'lganini va uni aldab qop-qonga tushurib ayyorlik qilib qochib ketganini aytib beradi.

Shunday odamlar bizning ichimizda ham bo'lib, birov boylikka, birov qo'rqqanidan, birov mansabga o'tirish uchun do'st bo'ladi va keyinchalik ular baribir aldab ketadi.

Haqiqiy do'st yaxshi va yomon kunlarda ham do'st bo'lib qolaveradi, deb xulosa qiladi.

Katta guruh yoshdagi kitobxonlar bilan ishlaganda tarbiyachi yoki kitobxonchi va kutubxonachi bog'cha hayoti bilan bog'liq bo'lgan asarlarga ko'proq e'tibor beradi. Ma'lumki bog'chada turli xil hislatlarga ega bo'lgan, ya'ni bebosh, beg'am, tanbeh, to'polonchi, intizmosiz bolalar ham o'qiydi.

Bu bolalarning xulqi tufayli qanchadan – qancha oynalar, kitoblar, kiyimlar iflos bo'ladi. Tarbiyachi katta guruhdagi bolalarga ya'ni bilimlarni bilishi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan to'g'riso'lik, adolatlilik, halollik, saxiylik kabi hislatlarni kitobdan qiziqarli hikoya, ertaklardan ularning qalbiga singdirib berish lozim. Ushbu yo'nalishning harakteri xususiyati shundaki, juda ko'p bolalar yuqoridagi aytilgan hislatlarning aksi o'zlarida ham mavjud ekanligini lekin ularga tushuntirib borish darkor.

Bir guruh kitobxonlar bilan ish olib borganda tarbiyachi ota- onaga mehr – oqibat ko'rsatishni ularning aytganlarini doimo bajarish kerakligini ta'kidlaydi. Ota – onani yaxshi ko'rish bu o'zi tug'ilib o'sgan yerini, yorini, elini, Vatnini sevishni bilan boliqligini tushuntiradi. Tarbiyachi guruhidagi javonda islom dini haqida yozilgan kitoblardan foydalanish lozim. Bolalar bilan umuman din, xususan islom dini haqida fikr yuriganda suhbatdan keng foydalanishini tavsiya etamiz. Suhbat davomida bolalarga dunyodagi hech bir narsa o'z – o'zidan bo'lib qolmaganligini ularning har bir narsani vujudga keltiruvchi yaratuvchisi Olloh ekaniligi aytiladi. Diniy tarbiyani faqatgina bir tomonlama olib borish yaramaydi, chunki u dunyo, yeru osmonni falakni yaratgan Olloh bilishga, unga ishonishga, uning diniga e'tiqod qilishga

o'rgatadi. Shuning uchun diniy tarbiya boshqa tarbiyaviy yo'nalishlar ichida alohida mavqini egallaydi. Tarbiyachi bolalarga estetik jihatdan tarbiyalash lozim. Ushbu tarbiyaviy yo'nalish asosan ruhiyatga, hisga, hayajonga asoslanganki uni olib borish tarbiyachidan katta bilim, mahorat, sab va taqotni talab qiladi. Tarbiyachi bolalarga estetik tarbiya berishda quyidagi asoslarga tayanadi:

A) shoir yozuvchining mahorati, uslubi imkoniyati;

Kitobning mazmuni, ma'nosi, kuchi g'oyasi badiiyligi;

V) tarbiyachining tayyorgarligi, uslubi bilimi va haqozo;

Mana shu uch holat birlashgandagina, hamkorlik bilan muvoffaqiyatga erishiladi. Tarbiyachi badiiy va san'at asarlari bilan ishlaganda estetik tarbiyaga ko'proq ahamiyat beradi. Chunki bu asarlarda insonning ruhiyati, xarakteri, faoliyati his- hayajoni, kechinmalari, tabiati dunyoda bo'layotgan voqea va hodisalarning hammasi bir butunligiga aks ettiriladi va bu bolaga ta'sir etadi.

1.2. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishga qo'yilgan davlat talablari.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z tas'ir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini

namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari – birovning dardiga shyerik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu printsiptiallik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. «His-tuyg'ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u uni tushunmagan va tanimagandir»_.

Xalq – bolalarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarni hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar – pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm)kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ot-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini

yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

K.D.Ushinskiy shunday yozadi: «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'ragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hyech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hyech qanday tarixchi bunga qodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hyech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas»_. Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan»_ o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, o'qituvchi har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yosh o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-syekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarga bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi.

Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan o'zbek folklori asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshq.

Bolalar bog'chasi va ota-onalarning vazifalari:

- Bolaga soʻz san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qaygʻurish va «ularga yordamlashish» hissin tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni boʻlajak oʻquvchilar sifatida shakllantirish;
- Hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda oʻqish qobiliyatini shakllantirish;
- Bolalarga sanoq sheʼr matniga mos keluvchi oʻyin harakatlarini bajarishni oʻrgatish;
- Bolalarda xalq asarlari, sheʼrlar, qoʻshiqlar ohangdorligi va musiqiyiligiga nisbatan emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash;
- Bolalarga adabiy asarlar koʻp martalab oʻqilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;
- Bolaning sheʼrlar va ertaklardan ayrim soʻzlar hamda ifodalarni takrorlashga ragʻbatlantirish;
- Illyustratsiyalarni koʻzdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni boʻyicha oddiy savollarga javob berishni oʻrgatish (Kim bu? Quyoning quloqlari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va h.k.).
- Bolalarga dastlab koʻrgazmali asosda (suratlar, oʻyinchoqlar, harakatlar), soʻngra esa koʻrgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa sheʼrlar, sanoq sheʼrlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni oʻrgatish;
- Bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu voqealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emotsional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «Sholg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan illyustratsiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi.

Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yoxud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shig'iga qo'shib aytishlari lozim (Allayulla, Gulnor qizim uxlasin, alla va h.k.).

Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustratsiyalar va o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga («Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan...») undashi darkor.

Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratishi alohida ahamiyatga egadir.

Bolalarga barcha notanish soʻzlar ma'nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yoxud u yoki bu ertakdan kelib chiqadigan ma'noni oʻz soʻzlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur.

Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

Bilish qobiliyati: kattalarning hikoya yoki kitob oʻqishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustratsiya, oʻyinchoqlar qahramonlarini tanib olish, sheʼrlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolish.

Nutqiy mahorat: asar, sanoq sheʼr, oʻyinlar, sheʼrlar mazmunini soʻz, imo-ishora, harakat orqali tasvirlash; soʻzni va tanishg sheʼrlar qatorlarini ilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish;

Munosabat: badiiy asar bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emotsional hamkorlikdan quvonchni va birgalikdagi qaygʻurishlarni ifodalash. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan birgalikda sheʼrlar, qoʻshiqlar aytishda ishtirok etishga, tovushlar, jarangdor qofiya, soʻzlar bilan oʻynashdan zavq olishga undaydi.

Bolaning oʻzlashtirish darajasi quyidagilarda ifodalanadi: Bola kitob tinglash, oʻyinda ishtirok etish haqidagi taklifga faol javob beradi. Uning oʻzi kattalardan sheʼrlar, ertaklar oʻqib berishni iltimos qiladi. Qabul qilishga oson qoʻshiladi. Asar mazmuniga oid savollarni diqqat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos oʻyin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustratsiyalarda tanish asar epizodlari va ularning qahramonlarini taniydi. Oʻqilgan kitobga nisbatan yorqin munosabat bildiradi; kuladi, quvonadi, yigʻlaydi, qoʻshiqlar, sanoq sheʼrlarni joʻr boʻlib aytishda faol ishtirok etadi.

Ilk yoshdagi bolalarda yuqorida aytib o'tilgan bilish, nutqiy qobiliyatlarni, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to'g'ri qo'llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farqlashni o'rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she'r o'qib beraman».

Janrlar yo'nalishini, ularning xususiyatini chuqur tushunish nisbatan katta yoshlarda ro'y beradi. Ilk yoshda esa bolalar janr nomini eshitganlari holda uni shunchaki esda saqlab qoladilar. «Masha va ayiq» - bu ertak, A.Barto yozgan «O'yinchoq» - bu she'r.

«Men sizlarga she'r hikoya qilib beraman», «ertak o'qib beraman» kabi noto'g'ri ifodalardan saqlanish lozim. Janr nomi aniq va to'g'ri berilishi zarur: ertak, hikoya, she'r. Ertak aytiladi, hikoya o'qiladi, she'r o'qiladi va yod olinadi.

Turli adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab qiladi. Ilk yoshdagi bolalarga ertakni kitobdan o'qib emas, balki uni aytib bergan ma'qul: bu emotsional ta'sirni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga qaraganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo'ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim qobiliyatni tarbiyalaydi.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo'lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorqin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jihatlarni esga olish va ularning ertakdagi so'zlar bilan takrorlashga majbur bo'lsin.

Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari qahramonlarining qo'shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarga o'qib berish uchun unchalik katta bo'lmagan hikoya va she'rlar (A.Bartoning «O'yinchoq», Z.Aleksandrovaning «Mening ayiqcham» she'rlari) tavsiya qilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emotsiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yaqin bo'lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: qofiyalar o'xshash, she'r qatorlari qisqa. Bolalar ularni takrorlar ekan, qatorlarning jarangdorligini, she'rning musiqiylikini ilg'ab oladilar, ularni oson qabul qiladilar. So'ngra esa butun she'rni esda saqlab qoladilar.

Bolalarni ilk yoshda ko'proq she'rlar o'ziga jalb qiladi, chunki ular aniq qofiyalari, ohangdorligi va musiqiylik bilan alohida ajralib turadi.

Takror o'qishda bolalar she'r mazmunini o'zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni his qiladilar, ayrim so'zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o'z nutqlarini boyitadilar.

Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she'r o'qishda kichkintoylarga har bir so'zni aniq aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o'rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so'zlarga urg'u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yishi va bolalarning ham she'rni to'g'ri aytishlariga erishishi lozim.

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo'lgan ertak hamda she'rlar o'qib bo'linganidan so'ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidagi ana shunday holatlarni eslatib o'tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o'z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o'zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir.

Kichkintoylarga ko'p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so'zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog'lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya.

She'riy obrazlar yaxshi o'zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she'rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik qatorlarni takror o'qish lozim.

She'rlar va ertaklarni esda saqlab qolish lug'atni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning mashg'ulot davomida eshitgan so'zlari ularning faol lug'ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so'zlarni turli ko'rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo'lmasa kichkintoy yangi so'zlarni shunchaki tovushlar uyg'unligi sifatida qabul qiladi va ularning ma'nosini tushunib yetmaydi.

Tarbiyachining vazifasi – bolalarga o'zlari aytayotgan so'zlar ma'nosini tushunishni o'rgatish, ularni boshqa so'zlar bilan birgalikda qanday qilib qo'llash mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir. Masalan, «Novvoscha» she'rini (Novvos borar chayqalib, hansiraydi yo'lida. Voy, taxta chayqalmoqda, men ham yiqilaman-da.) o'qib bo'lgandan so'ng bolalarga yana nimalar chayqalishini ko'rsatish mumkin: novdada barg chayqalmoqda, ipga bog'langan soqqa chayqalmoqda va h.k.

Ish jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nisbatan shunday yondashuv tez-tez uchraydiki, bunda pedagog ertak yoki she'rni ifodali, emotsional o'qib beradi va shu bilan «tanishtirish» nihoyasiga yetadi. Bolalar balkim, uning ma'nosini tushunib yetar, lekin o'qish ularning fikrlarini rivojlantirmaydi, ular tinglagan asar mazmuni va so'zlari tezda esdan chiqib ketadi. Bunda me'yor hissiga amal qilish juda muhim, ammo asar ustida ishlash, bolalar eslab qolgan so'zlar va ifodalarni takrorlashni davom ettirish juda zarurdir.

Har bir mashg'ulotdan so'ng so'zlarni takrorlash, mustahkamlash lozim. Ularni eng turli-tuman ko'rinishlarda talaffuz qilish darkor, faqat shundagina bolalar ona tili lug'ati va tuzilishini o'zlashtiradilar, ularning faol lug'ati kengayadi, ular bu so'zlarni o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar.

Ayniqsa, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda bolalarning adabiy asar mazmunidan kelib chiqib savollarga javob berishida to'g'ri grammatik shakldagi so'zlardan foydalanishini kuzatib borish lozim.

Shunday qilib, badiiy asar bilan tanishtirish nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik qatorga, lug'atga ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshlardan boshlab ravon nutqni rivojlantirish poydevori shakllantiriladi. Bu nisbatan murakkab asarlarni qabul qilish, nutqni yanada rivojlantirish uchun zarurdir.

Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga erishadi:

Adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavq oladi, ularni qiziqib tinglaydi;

Unga aytib berilayotgan yoki o'qilayotgan asarlarni chalg'imasdan, diqqat bilan tinglaydi;

Takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustratsiyalar va o'yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she'rlar qahramonlarini taniydi;

Asar (sanoq she'rlar, qo'shiqlar, ertaklar) mazmunini so'z, harakat, imo-ishora bilan ko'rsatib beradi;

Tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni ilib olishga intiladi;

Kichkintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildiradi.

1.2. Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muhitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat hamdir.

Bola o'z tashqi ko'rinishini, kostyumini ko'rish va ularga baho berishni boshlaydi; qo'llari, yuzi, kiyimlarining tozaligiga e'tibor beradi; to'g'ri va ozoda ovqatlanishni o'rganadi. U muloqot va odamlar borasida nima chiroyliyu, nima xunukligini tushuna boshlaydi. Mohiyatan yagona bo'lgan estetik va axloqiy munosabatlar muayyan bola ongida va xulq-atvorida birlashadi.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emotsional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va syensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-bir bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To'rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emotsional va yaxlit qabul qilganlari holda uni tushunganliklarini nafaqat nutqda (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki pyedmetli va o'yinli vaziyatlarda ham ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki hodisani ajratadilar, ular o'rtasida alohida aloqa o'rnatadilar va shu tariqa asar syujyetini gavdalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko'pincha ularda ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Bu yoshda adabiy matnni qabul qilish bolalarning amaliy va o'yin faoliyatiga yaqin bo'lgan «harakat»dan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to'laqonli hamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarni tomosha qilishi, kitobni qo'llari bilan ushlab ko'rishi, o'yinchoqlar bilan o'ynashi, matnning ayrim qismlarini deklamatsiya qilishi yoki «baqirib aytishi», ularni muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini aniqlashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chiyegalarab bo'lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matnni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida qabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining qabul qilingan badiiy asarga qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chiqarishi mumkin. Ko'pchilik bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda bayon qila olmaydilar, ammo uni suratlar, o'yinchoqlar bilan o'yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish qiladilar.

Ushbu yoshda boshqacha vaziyat ham yuzaga kelishi mumkin – ya'ni, bolalar tushunishda qiynalgan ancha murakkab matnni yoki uning ayrim qismlarini so'zlar bilan aytib beradilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni –yagona emotsional-mazmun dominantasi asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlar; ular tilning tashbehlar, taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini

ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini intonatsiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin: yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an'anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshq.) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va syevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujyetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol syezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

Turli janr va mavzulardagi adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujyetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

Bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

Tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish;

Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

Kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish. Illyustratsiyalarni mustaqil ravishda va takror ko'rib chiqish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maqsadga muvofiqdir: folklorning kichik shakllari, prozaik va she'riy ertaklar, hikoyalar, she'rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya'ni, agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo'lsa; badiiy asar yorqin va ifodali taqdim etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o'zi ham improvizatsiya qilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib borish lozim.

Birinchisi badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'yekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog'liq. Bolalar aynan bir asarga ko'p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o'qiydi, mazkur asarni sahnalashtirishni, dia va vidyefilmlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she'rni yoddan o'qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o'qishning ifodaliligini sahnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bimalol foydalanish mumkin bo'lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o'ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga haqqoniy bildirishi juda muhimdir.

Ikkinchi yo'nalish ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir njechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Bu asarlarni o'xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Illyustratsiya bolaga harakat rivojini kuzatib borish va matnni tushunish imkonini beruvchi asosiy tayanch vositalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan turli badiiy usullarda va texnikalarda bajarilgan yuqori badiiy ahamiyatli qiziqarli illyustratsiyalardan foydalanish zarur. Biroq, uch-to'rt yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ko'pincha shunday vaziyat yuzaga keladiki, bunda surat matnni bezamaydi, aksincha matn suratga jon baxsh etadi. Shuning uchun ayrim asarlar bolaning tasavvurini, badiiy nutqni tinglash va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun albatta, ko'rish tayanchlarisiz taqdim etilishi lozim. Ayniqsa, bu obrazlari yuqori darajada noaniq bo'lgan va obrazlari yuqori darajada ifodali bo'lgan (folklor she'rlarining kichik shakllari) asarlarga taalluqlidir.

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

Bilish qobiliyati: kattalarning kitob o'qishi va hikoya qilishini diqqatni jamlagan holda tinglash, chalg'imaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi voqealar tartibini belgilash, qahramonlarning muallif so'zi bilan yaratilgan eng yorqin hatti-harakatlarini ko'rish, ularni illyustratsiyalardan tanib olish.

Nutqiy qobiliyat: o'qigan asardan olgan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o'rtoqlashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so'zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she'rlarni yoddan aytish, adabiy syujyatlarni sahnalashtirishda, sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, hazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda o'z nutqida qo'llashni xohlaydilar.

Besh yoshga kelib bola:

O'ziga yoqqan bir nychta asarlar nomlarini aytishi; syenga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

Suratlarni o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chyetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agarda ushbu qahramon ham ertakda ishtirok etsa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi;

O'zi xohlagan kichik she'r (sanoq she'r) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

Qahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emotsionallikning pasayishi;

Voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turi xil mazmunli aloqalar o'rnatish qobiliyati;

Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko'rish va qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatlari ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;

Hosil bo'lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talqin qilish va o'zgartirishga urinish;

Janr asosi (ertak, hikoya, she'r) va maqbul mavzularning (hayvonlar, syehrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshq.) paydo bo'lishi;

Tilning ayrim ifodali vositalirini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;

Adabiy asarlarning xarakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozitsiyalarning uch qismliligi, adabiy qahramonlarning asosiy harakatlari va boshq.).

Besh-yetti yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari – bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lgan uyg'unligidan iborat. Bir tomondan – bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan – besh-yetti yoshli bolalarning taqlidchilikka, me'yoriylikka intilishi hammaga yaxshi ma'lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o'zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. Yuqori baholanadigan natijalarga erishish uchun unda obrazli steryeotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talqin qilish hamda uni to'g'ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Biroq, adabiy qahramonlarni faqat «so'zda» tushunish va ularning harakatini axloq me'yorlari nuqtai-nazaridan baholash tasvirlanayotgan vaziyat ma'nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko'radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalandirish natijasidagina ularning badiiy obraz va muallif g'oyasini tushunishlari mumkin bo'ladi. Bu nafaqat axloqiy nomuvofiqliklarga, balki univyersal bilish muammolariga ham taalluqlidir, zero badiiy asarlar ularning ko'p qirralari talqinlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi bunday tushunish ko'pincha vyerbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o'yin syujyetida, voqealarni o'ylab topishda va boshq.). Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy

turlarini afzal ko'rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar motivlari bo'yicha sahnalashtirish o'yinlari reproduksiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

Bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasi shakllantirish;

Ifodali badiiy nutqni shakllantirish;

Bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emotsional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik she'rlarni yoddan aytib berishni o'rgatish. Ma'lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.

Bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o'ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy qo'llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

Asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;

Bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o'zgarishi, uning ko'p qirraligi va ko'p tomonlama bog'liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

Bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko'rishni rivojlantirish;

Bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qo'lyozma kitoblar yozishga jalb qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to'g'ri belgilash zarur. Ular qanday bo'lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib

qolmasligi kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e'tiborini alohida adabiy asarning badiiy qimmatiga – she'rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujyetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy asarni yoki o'z to'qigan asarni ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq, badiiy asar faqat so'z bilan aytilishi, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modyellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarning ularga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (hayvonlar va syehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan'naviy (bolalar, tabiat hodisalari, pyedmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruhida o'z ertaklarini to'qishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim; bolalarni ularning o'z hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoyalar tuzishga undash zarur.

Bolalarning adabiy asarlarning o'ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida «Agarda bo'lsa, nima bo'lar edi» toifasidagi ijodiy o'yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o'yinlarda tipik qahramonlar, syujyet elementlari erkin qo'shiladi, natijada g'ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehtar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy asarlar

personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki asarda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topish.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy asarlar syujetlari asosida o'yinli «xayolotdagi olamni» yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy asar (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «xayolotdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asarlarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli asarlarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir asar doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo'nalishlarini ko'rib chiqishda kontekstlarni o'zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o'zaro bog'liqligini (so'z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

Shuningdek, quyidagi shakllar ham mumkin: pedagog bolalarga asarlar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochiq turdagi univyersal bilish muammolarining (tirik va o'lik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik muammolari) turlicha obrazli yechimlarini qidirishlariga yo'naltiradi. Ravshanki, qidiruv jarayonida muammolarning o'zlari umumlashtirilgan ko'rinishda shakllanmaydi, balki faqat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek bolalarning o'zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muhokamasi ro'y beradi, xolos.

Dialog – pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo'lishi lozim. Pedagog bolalarning adabiy asar bo'yicha ijodiy dialogda, muammoli vaziyatlarni hal etishda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bolalar bir-birlarini to'ldirganlari holda adabiy asar mazmunini birgalikda tasvirlaydilar, muhokama jarayoniga talqin elementlari va ta'riflangan voqealarni, adabiy qahramonlarni va

ularning hatti-harakatlarini baholashni olib kiradilar. Dialogik muhokama jarayoniga pedagog adabiy mazmunni muammolashtirish elementlarini, ya'ni: talqinlarning bir xil emasligi, ochiq turdagi savollarni qo'yish va ular bo'yicha mulohaza yuritishni (masalan, ertakni aytib bo'lgandan so'ng undan nima qoladi?) olib kirishi zarur.

Pedagog o'z ishining samaradorligini nafaqat bolalarning mashg'ulotlarda o'zlarini qanday tutishlari bilan baholaydi, balki u ularning erkin faoliyatdagi xulq-atvorini kuzatadi: adabiy mavzudagi o'yin va suratlar syujyetlarini qayd etadi, bolalarning fikrlarining mazmuniga, ularning mustaqil so'z ijodkorligiga e'tibor beradi; bolalarning kitoblar bilan harakatlarini - yakka tartibda yoki birgalikda uni ko'rib chiqishlari, o'qishlarini rag'batlantiradi. Pedagog bolalar savollariga javob beradi va ularga yoqib qolgan asarlar (dasturdagi va dasturga kiritilmagan) mazmuni bo'yicha ular bilan yakka tartibda suhbatlashadi.

Pedagog bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zlari tomonidan «kitob» yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to'qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo'shiqlar, sanoq she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, qo'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin. Guruhda o'qib chiqilgan, bolalar suratlari, variativ syujyetlar, improvizatsiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o'zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma'lum qilishi, o'zining badiiy ta'bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to'g'ri amalga oshirilgan ishlar natijasida yetti yoshga kelib bolada quyidagi rivojlanish ko'rsatkichlari shakllanishi lozim:

Bola o'ziga yoqqan bir neyechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin.

Kichik she'r yoki she'riy asardan kichik parchani ifodali o'qib berishi mumkin.

O'zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o'xshash boshqa asarlarni ham biladimi? Ularning o'xshashligi nimalardan iborat? (o'xshash personajlar, syujyet harakatlari);

Kitobga qiziqish paydo bo'ladi: o'qilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaqlab chiqadi, mazmunini aytib yoki o'qib beradi, uydin syevimli kitoblarini keltiradi.

Ertak syujyetiga mos tarzda qo'shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj qo'shiladigan vaziyatlarni to'qib, qo'shib qo'yadi.

Yaxlit ertak to'qishi mumkin, bunda u uning ehtimoliy qahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birligidan, tipik kompozitsiyalar va stilistik vositalar to'plamidan ham foydalanadi.

1.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish.

Umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o'rganadi. Kutubxonashunoslik esa uning xulosalarga tayanib, bolalarning kitob o'qishicha, ularning yosh xususiyatlarini qnaday kitoblarni o'qish o'rganishga ta'sir etadi.

Katta maktabgacha yoshdagi guruhda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar.

Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tartib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqea va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni “yaxshi” va “yomon”ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar.

Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'qimliklar qiziqtiradi.

Hali ular ilmiy bilim beruvchi kitoblar tabiat haqida tug'ilgan savollarga javob berishini bilmaydilar.

Shuning uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma – hil savollarga ko'mib tashlaydilar.

Endi ular voqea va hodisalarga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar.

“Nima uchun qaroqchig'i bo'ladi”, “Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi”, “Nima uchun qor yog'adi” va h.k. savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib,

aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi.

Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash harakterlidir, o'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozlishi masalaning quyilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o'qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta'rif berdik xolos.

Bolalar o'qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish lozim.

Jamiyat taraqqiyotining nihoyatda ilgarilab ketishi, fan va texnika maorif va madaniyatning rivojlanish kishilar ma'naviy dunyosining yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Xususan hozirgi kitobxon 60-70 yillardagi tengdoshlaridan farq qiladi.

Ta'lim –tarbiya jarayonida texnik vositalardan- kino, televideniya, matbuot keng doriada bilim olishlari uchun imkoniyat yaratmoqda.

Kitobxonlarni o'rganish, ularning qiziqish va o'ziga xos xususiyatlarini bilish tarbiyachining rahbarlik qilish sifatini oshiradi Bolalarni kitobxonlikka o'rganish har xil usullarda olib borilsa ham quyidagi prinsiplarga asoslanadi. Asosiy prinsiplardan biri – yosh kitobxonni o'rganishni uning shaxsini o'rganish bilan bog'liq holda olib borish.

Avvalo tarbiyachi suhbat kuzatish va boshqalar birgalikda kitobxon haqida to'liq ma'lumot bera oladigan bo'lish lozim.

Shunday qilib biz yosh kitobxonning qiziqishi va talablarini o'rganish bilan birga uning o'zini ham o'rganamiz.

Zero, kitobxonning qiziqishi, talabi uni o'rab turgan muhit (oilal, maktabgacha talim muassasasi, o'rtoqlari) bilan munosabatini qo'shib o'rganishga, u haqda to'liq ma'lumot beradi.

Ikkinchi prinsip, pedagogik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqadigan fikrlar va xulosalar asosida yosh kitobxonni o'rganish bilan birga uning qiziqishlarini to'g'ri yo'lga solib, yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Uchinchi prinsipshunga asoslanadiki, bolalar kitobini ilmiy va estetik jihatdan o'rganish bilan uzviy alohida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga atalgan badiiy, ilmiy, ammobob kitoblarni yaxshi bilishi, uni pedagogik tomondan tahlil qila olish kerak.

Tarbiyachi bu kitoblarni o'zining mulohazasi va xulosalari bilangina baholab qolmasdan, kitobxonning yosh xususiyati, saviyasi hamda nuqtai nazarini ham hisobga olish lozim.

Yosh kitobxonni o'rganar ekanimiz yuqorida ko'rsatilgan prinsiplarni bir – biri bilan o'zaro bog'langan holda olib borish lozim.

Shu prinsiplarni qo'llashda, yuqorida ta'kidlaganidek, kitobxonlarning yosh xususiyatlari hisobga olish lozim.

Kitobxonlarni o'rganishni o'ylab, rejali raivshda bir maqsadga qaratilgan to'g'ri tashkil etish lozim. Avvalo o'rganish yo'lini, so'ngra unga yuklatilgan vazifani aniqlab, reja tuzib olish kerak.

Kitobning bolaga ta'sirini, u qaysi qahramon va hodisalarni eslab qolishini, kitobning mazmuni va yozilishiga bo'lgan munosabatini, kitobdagi ilmiy bilim beruvchi materiallarni qanchalik o'zlashtirib olgini o'rganish mumkin.

Bu yerda tarbiyachi o'z oldiga yana ham aniq masalani qo'yish, ya'ni bolalarning biron bir yozuvchining asariga bo'lgan munosabatlarini biron bir yozuvchining asariga bo'lgan munosabatlarni, biron – bir janrdagi yoki mavzudagi (ertak, poeziya, fantastika, urushlar) kitoblarni o'qilishi va undagi materiallarning qabul qilishini aniqlash mumkin.

Bu tarbiyachi uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

Jumladan tarbiyachi bolalarning kitobga beradigan o'ziga xos baholarini munosabatlarini aniqlab olish bilan ularga eng qo'l keladigan usul vositasida kitob tarvsiya etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kuzatish usuli yordamida esa kutubxonachi yoki tarbiyachi kitobxonni kitob tanlayotganida, ommaviy ishlarda qatnashashyotganida, kitob o'qiyotganida (o'quv xonasida) bevosita ishlanadi. Suhbat usuli orqali u kitobxon fikrini, bilishini, qobiliyatini, qiziqishini, so'zlab berish mahoratini bilib oladi.

Bu usulning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Birgalikda ko'ndala qilish usuli orqali biror bir dolzarb munokdasi kuzatiladi. Bu ayniqsa kitob haqida munozara bois o'tkazilganda yorqin namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi o'zlarining kundalik faoliylarida shunday usullardan foydalanadilarki, u bir vaqtda ham kitobxonni o'rganadi, ham uning o'qishga rahbarlik qiladi.

Tarbiyachi talaba kitobxonlarning talabi ikki yo'l bilan hisobga olib boriladi. Birinchi, kitobxonni qiziqtiradigan kitoblarni tarbiyachi ularning so'rog'ini maxsus tayyorlangan savollar asosida yozib boradi.

Kuzatish va suhbat – kitoblarni chuqurroq o'rganish usuli bo'lib, tarbiyachi o'zining kundalik ishida kitobxonlar bilan yakkama- yakkam ish olib borganda doimo shu usuldan foydalanadi.

Tarbiyachi kitobxnlarni kitob tanlash, undagi rasmlarni ko'rish yoki bolalarni kitobni bir –biriga tavsiya etayotgan paytda ular aytgan so'zlarni bildirmasdan yozib oladi, bu ancha tabiiy chiqadi. Kitobxonlarning o'qishini o'rganishda va ular bilan yakka tartibda ishlashda eng samarali usullardan biri suhbatdir, bu kitobxonni va tarbiyachi o'rtasidagi quruq savol va javob bo'lmay, balki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida kitoblar haqida qiziqarli, maroqli fikr almashuv vositasidir.

Odatda tarbiyachi quyidagi uch xildan foydalaniladi:

1. Bolaning kitobga qiziqishini tanishuv suhbat.
2. Tarbiyaviy suhbat
3. O'qilgan kitoblar haqida suhbat.

Suhbatning bu uch xil o'zaro bir – biridan farq qiladi va shu bilan birga kitobxonning yoo'iga, o'ziga xos xususiyatiga qobiliyatiga, o'qish texnikasiga qarab ham har xil bo'ladi.

2.BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISHNING MAZMUNI SHAKLI VA USULLARI.

2.1. Kitobxonlikka mehr uyg'otishning yo'llari va vositalari.

Yosh kitobxonlar ko'pincha begona kishi oldida uyalib gapirishga iymanadilar, shuning uchun ham bu yoshda ota – onalar tarbiyachilar ishtirok etsalar bolalar haqida bilimlarga ega bo'lib oladilar. Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayodigan har xil savollar berilsa, bola hodiksiraydi, shuning uchun ham savollar qisqa lo'nda va qiziqarli bo'lish bilan bolaning o'zini ko'proq gapirishga imkoniyat yaratadigan bo'lish kerak.

Kitobxonlarni o'qishga rahbarlik qilishda tavsiyaviy va o'qilgan kitoblar haqidagi suhbat katta ahamiyatga ega.

Tavsiyaviy suhbat bolaga kitob tanlashda yordam berishni, kitobga qiziqish uyg'otishni, o'ziga maqsad qilib qo'yadi.

Tarbiyachi iloji boricha har qanday so'roqqa javobi tavsiya suhbatini o'tkaziladi, kitobxonga mos keladigan kitoblarni tavsiya etadi.

Bunda albatta xonadagi turli tavsiyaviy vositalar, kitob ko'rgazmalari, rasmiy kartotekalardan foydalanib kitobxon diqqatini jalb etadi va qiziqarli so'zlab berish orqali ularni kitobga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Tavsiyaviy suhbatning qimmatini shundaki u kitobxonni tartibli ravishda ko'proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

Tarbiyachi kitobxon bilan kitob almashtirayotganda davra suhbatini bilan quyidagi foidalarga amal qiladi.

1. Suhbat kitobxon qiziqishga manoli bo'lish kerak, agar shunday bo'lmasa, kitob tavsiyasi va tarbiyachining maslahati zo'rma- zo'raki g'amxo'rliki keraksiz bo'lib qoladi.

2. Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan, bo'lib kitobxonning qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim.

Bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishga moyillik uyg'otish kerak.

3. Tavsiya etilayotgan materialning to'liq mazmunini aytib bermaslik lozim, unda kitobxonning materialga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi.

4. Tavsiya etilayotgan materialning qisqa ifodalik, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

5. Kitob haqida suhbatlashayotganda kitobni ko'rsatish, uning muallifi, rasmlari ba'zi joylarida o'qib berish ham mumkin bu esa suhbatini jonli o'tishiga yordam beradi.

Ko'pgina maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so'raydilar. Tarbiyachi haqiqiy qirg narsalar haqida u bilan birgalikda eslaydi, shundan so'ng qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi.

Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini, kitobda nimalar bayon qilingan ekan? "degan umumiy savoldan emas, balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so'rashdan boshlaydi va asta –sekin undan kitobni qanchalik tushunchanini bilib oladi. Zarur bo'lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qahramon xarakterini tushunishiga yordam beradi, muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o'qiydi, berilgan rasmlarni ko'rib chiqadi kitobxonga asar g'oyasini tushuntiriga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi.

Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil raivshda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi. Chizning uchun bog'cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotenalari rasman bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kitobxonlarning yosh xususiyatida katta farq bo'lgani nabu ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi.

Bundan tashqari har bir kitobxonning o'ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo'lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg'ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlami va ularga yordam berish zarur.

Bolaning ko'z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning quziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo'lib gavdalanish lozim.

Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbat bog'liq.

Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o'tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtojdilar.

Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli – suhbatdan foydalaniladi.

Tavsiyaviy suhbat o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- bolaga kitob tanlashga yordam belish;
- kitobga nisbatan qiziqishni uyg'otish bolaning kitobga juda ham qiziqishi kitobni oxirigacha yakunlashni yordam beradi;

- o'qishga qo'llanma berishdan iboratdir.

Tavsiyaviy suhbatda so'ralgan kitob xarakteriga, ya'ni so'roq motiviga bog'liq holda har xil tuziladi.

Suhbat davomida bolalarga yoqqan yoki yoqishi mumkin bo'lgan bir necha kitoblarni ko'rsatadi, ular qiziqтира oladigan jizodlarni aytib beradi.

Masalan mehr oqibat tuyg'usini shakllantiruvchi "Yoriltosh ertagini bilasizmi?". Bu kitob yetim qizlar Gulnora va Oymomo haqida. Gulnora juja chiroyli, chaqqon, mehribon, ishlab charchamaydigan qiz bo'ladi.

Uning onasi vafot etganidan keyin otasi begona ayolga uylanadi. Ayol juda badjahil yolg'on bo'ladi.

Gulnora singlisini o'padi-da zor – zor yig'lab qochib ketadi. Uni quvlab kelayotganlar yetay deganda tog'dagi tosh yorilib Gulnora uning uchiga kirib ketadi. Quvlaganlarning hammasi kirib yoriltosh desa ham tosh yorilmaydi. Lekani hyech kim yo'g'ida singdisi kelib yoriltosh desa u ochiladi, nimaga shunday bo'lganini kitobni o'qisalarig bilib olasizlar deb kitobxonni qiziqtirib kitoblar tavsiya etiladi.

Shu bilan bir vaqtda kutubxonaga yoki tarbiyachi bolaning diqqatini tortadi, ularga o'zlari qanday qilib ko'rgazmadagi qiziq kitoblarni topishlari kerakligini tushuntirishi kerak.

Kitobxon bir mavzu bo'yicha kitobning muallifi va nomini bilmogan holda kitob so'raganda ham tavsiyaviy suhbat o'tkazish kerak.

Tarbiyachi bolaga "O'rtoq uylari" kitobini tavsiya etadi.

"Bu kitobda sen qanday qilib qoldirg'ach o'z ustini yo'qotib qo'yganini u qanday qo'shnilarning uylariga borganini bilib olasan, qorong'i tushadi hamma qushlar unga yotib qolishni taklif etishadi, lekin qoldirg'och ko'nmaydi, u o'zining

uyini qidiradi. O'qiganingda nima uchun qoldirg'och hyech kishnishida yotgani unamagingni o'ylab ko'r?"

Kitobxon nomi aniq bo'lgan kitobni so'raganda ham tavsiyaviy suhbat zarur. Bu yoshdagi bolalarga kitobdagi alohida epizodlar, atamalar qiyinchilik terdirishini kutubxonachi o'z tajribasidan biladi.

Bunday holda kutubxonachi yoki tarbiyachi bola nima uchun shu kitobni tanlayotganini, kitobni o'zi o'qiydimi yoki kattalar bilanmi? Shularni bilib oladi va bolani qiziqtirayotgan kitobni unga beradi.

Ko'pgina bolalar tabiat haqida kitoblar so'raladi.

Shuning uchun tarbiyachi tabiatning jami va jonsizga bo'linishini, o'simliklar, hayvonlar va odamlar, ozuqlanishi, nafas olishi, o'sish ko'payishini va bular jonni tabiat quyon, oy, yulduzlar, toshlar jonsiz tabiat jonligini tushuntiradi. Yerda eng qudratlisi inson ekanini, u tabiatni o'zgartirib turishiga qodirligi haqida so'zlab berib, kitobni o'qiganingda shunga e'tibor bergan deb tayinlanadi.

Bu yerda kitobxonning qiziqishini uyg'otadigan savollar juda muhim. Masalan "Qurba foydali jonivorli yoki zararli? U qishda qayerda yasashdi?" Itbaliq katta bo'lsa baliq bo'ladimi, qurbaqa? "nimaga shunday. Ayrim hollarda kitobxonlar mashg'ulot jarayonida olgan bilimlarini to'ldiruvchi kitoblarni tavsiya qilish bilan birga kitobxonda har qanday savollarga javob beruvchi kitoblarni topish mumkinligini ko'rsatuvchi bo'lishi kerak.

Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda u shu kitobning boshdan ozgina o'qib berib, kitob qahramonini harakterlab beradi. Ertaklarda ko'rsatilgan rasmlar ham muhim rol o'ynaydi.

Bunda rasmlarning hammasini birdan ko'rsatish maqsadga muvofiq mas. Rasmlar bolaning hayajonini kuzatgan holda asta – sekin ko'rsatish kerak. 1-2 ta

asosiy rasmlarni ko'rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga, voqealarga, qahramonlarning harakteriga qiziqib qoladi.

Masalan, Qadim Saidmurodovning "Men opamdan kattaman" kitobini tavsiya qilayotib, unda rassom Iambarov chizgan rang – barang, chiroyli rasmlarga bolalar va tibot tasviriga e'tibor beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko'rsatish usuli ayniqsa muhimdir.

Ular o'quv texnikasini yaxshi bilishmaydi, kitobdagi rasmlar ularni shu kitobga qiziqtiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Tavsiya suhbatini kitobxonni rasmni va matini chuqur qabul qilishga tayyorlaydi.

Suhbat davomida bolaga kitobga chizilgan rasmni, kitob muallifining va rassomning familiyasini voqea sodir bo'lgan vaqti va joyini ko'rsatib, kitobxon diqqatini kitobning asosiy tomonlariga tortadi.

Tarbiyachi: "mehmonga bergan yaxshi kitobda chizilgan rasmdagi mezonlarning iltifotlarini, bolaga hamma narsa muhojyo qilib qo'yilganligini, uni maza qilib konfet yeyayotganligini hozir mutoyiba bilan so'zlab berish bolalarda kitobga va rassomga mehr uyg'otadi.

Kitobxon bilan bo'ladigan suhbat bolaning diqqatini asarning asosiy g'oyasigagina qaratib qolmasdan undan peyzoj, demak va obrazdagi ushbu g'oyaning mazmunini to'liqroq ochib berishga yordam berishini tushuntirib o'tishi lozim.

Chunki A.S.Pushkinning "Baliqchi va baliq haqidagi ertak" asaridagi voqealarning rivojlanishi natijasida dengiz to'lqini va rangi o'zgarib turishi bilan farqlanadi. Masalan "Birinchii marta chol oltin baliqni so'rab kelganda dengiz qanday ahvolda edi "Chol 2 – 3 marta kelganda esa dengiz qanday bo'lib qoldi?

Bu savollarga bolaning ertakning g'oyaviy mazmunini to'g'ri tushunishiga, xasis kampirning talabi bilan dengizning to'lqinlanishi o'zgarib turganini tasavvur qilishiga yordam beradi.

Bolalar asardagi badiiy detallarni esda yaxshi saqlab qoladilar. Asarni eslatishga va detallarni oydinlashtirishga qaratilgan savollar bolalarning asar mazmunini to'liq eslab qolishlariga yordam beradi.

Ularning kuzatuvchanligini o'stiradi va so'zga mehr uyg'otadi.

Ayrim paytda badiiy adabiyotlar yuzasidan o'tkazilgan suhbat davomida savollarga kitobxonning faktik tomonlarini qanday o'zlashtirganligini, u kitobni oxirigacha o'qigan yoki o'qmaganligini, uning mazmunini tushungan yoki tushunmaganligi kabilar bilib oladi.

Bu kabi savollar o'qiganlarini yaxshi tushuna olmaydigan, kitobni oxirigacha o'qimaydigan o'quvchilar yoki bolalar bilan suhbat o'tkazilganda qo'llaniladi. Bunda tarbiyachi bolaning o'qiganlarini, asardagi yorqin epizodlarni yodga olishiga harakat qiladi.

Bu usul, bola kitobni topshirayotgan paytda kitobning qaysi joylarda ko'proq yoqib qolgani haqida gapirgan vaqtda qo'llaniladi. Bu esa kitobning qiziq – qiziq joylarini qayta o'qib chiqishga havas uyg'otadi. Bolalarning ma'lum asardagi qahramonlar va voqealarni tasvirlab chizgan rasmlari ham shu kitobning mazmunini esda yaxshi saqlab qolishda katta yordam beradi.

Ko'pincha tarbiyachilar odatdagi savollar bilan, birga shu kitob qanday rasm chizish haqida ham uylab ko'rishni taklif qiladilar. Kitob bilan ommaviy ish olib borilganda, bolalarni vatanimiz va boshqa mamlakatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy – siyosiy voqealar va hodisalar, tabiatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar bilan tanishtiriladi.

Mashhur shoirlar va yozuvchilar, peadgoglar A.Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy, S.Delimov, S.Rajavob, X.To'xtaboyevlar ifodali o'qishga yuqori baho berganlar.

Ovozli o'qish va so'zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo'lib, undan oilada ham keng foydalaniladi. Mashhur pedagog A.S.Makarenko oilada ovozli o'qish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab: Imkoni boricha o'qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim.

Avvalo ota – onalar o'qib berilsa, so'ngra bu ishni bolalarning o'ziga topshirishsa maqsadga muvofiq bo'ladi" degan edi.

Ovozli o'qish va so'zlab berish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhim o'rin egallaydi. Ular ham o'qish texnikasini yaxshi egallamagan bo'ladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar birinchi – ikkinchi yilda o'qishga qiynalishlari sababli o'qishdan ko'ra eshitishni yaxshi ko'radilar. Bundan tashqari, bolalar o'qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o'zlashtirishga va aytib berishga ham o'rganishlari kerak.

Ovozli o'qishga yoki so'zlab berishga xalq ertaklari juda qiziq manba bo'lib xizmat qiladi. Har xil fantastik sehrli ertaklarni so'zlab berish maqsadga muvofiq.

Aniq va yorug' obrazli kichik, qiziqarli ma'nodor ertaklar bolalarni atroflarini o'rab turgan dunyo bilan tanishtiradi.

Ularning ko'pgina savollarga javob beradi. Xalq ertaklariga xos bo'lgan xususiyat haqiqatni yomonini, rostni yolg'on ustidan g'alaba qilish xususiyati bolalarda haqgo'ylikni tarbiyalaydi. Natijalar ertaklar bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otadi. Ammo hamma xalq ertaklari ham bolalarga to'g'ri qilavermaydi. Ertak tanlayotganda bolalarning yosh xususiyatiga, ertakning g'oyasi va mazmuniga e'tibor berish kerak.

Maktabgacha yoshdagi kitobxonlikka mehr uyg'otish yana bir usuli so'zlab berishdir. So'zlab berish asar tanlangandan so'ng birinchi marta o'qib, hamma tomoniga e'tibor berish kerak. Uning mazunini bilan shunday tanishishi va eshituvchilarga ham hikoyaga asardan qanday ta'sirlangan bo'lsa, shunday ta'sirlanishlari kerak. Shundagina kitobdagi hamma narsalar eshituvchilarning esida qoladi, ular holatlarini hatto so'zma – so'z bilib olishadi. So'zlab berishda ma'noga amal qilish lozim. Chunki so'zlab berishda juda buzib yuborish kitobxonlarni zeriktiradi.

2.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari.

Inson har tomonlama rivojlangan yaxshi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, yurish – turishi, qobiliyati va imkoniyatlarining hammasini uning ota – onasigina ko'proq biladi. Shuning uchun bolaning kitobni to'g'ri tanlay olish va undan o'rinni foydalanishda tarbiyachi va ota – onaning o'rni katta.

Bundan tashqari, tavsiya etiladigan kitoblar bolaning yoshi, psixikasi, tushunish qobiliyatiga mos qilish maqsadga muvofiq. Shuni e'tiborga olish kerakki maktabgacha yoshdagi bolalarga ifodali o'qishni tashkil etishda xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklari, hikoyalarga keng o'rin ajratish kerak. Bunday asarlar sirli tomonlari bilan yosh kitobxonlarni o'ziga tortadi va ular tarbiyachiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki xalqning nodir ijod namunalari o'zining teran xalqchilligi tilining jozibadorligi va yuksak badiiyligi bilan maroqlidir. Zotan ularda xalqning orzu – umudlari, qahramonligi, vatanparvarlik kitobga mehr –uyg'otish tuyg'ulari aks etgan bo'ladi.

Masalan savol – javob qilganda bolalar quyidagi savollarga javob beradilar. Qanday ertaklarni o'qib, eshitgansiz va nimaga bu ertaklar yoqadi. Bulbulgo'yo, “Badal qaroqchi”, “Uch og'ayni botirlar”, “Sehrli olma” va boshqa ertaklarni sevib eshitishlarini aytishdi. Yuqorida sanab o'tilganlarda ta'sirchan, tarbiyaviy ahamiyati g'oyat ulkan sahnalar voqealar, xulosalar bo'rttirib, takror e'tibor va urg'u berib, alohida o'tish tavsiya etiladi.

Yana bolalarga savol bilan murojaat qildik. Qaysi qahramonlarni yoqtirasiz Nima uchun? Shunda bolajonlar “Oyg'ul bilan Baxtiyor” ertagida, qahramon, Zumrad va Qimmatdagi, Zumrad qizning qahramoni bolajonlarga ma'qul ekan. Bolalarning qiziqishlariga qarab, ertak hikoyalar qilib beriladi. Ifodali o'qib yoki

hikoya qilib beradigan kishi tanlangan kitob, hikoya, she'rni avvalo bir yoki ikkinchi marta o'qib chiqish, qiziqarli rasmlarga e'tibor berishi lozim.

- 1) Eratkdagi qaysi voqealar sizga yoqadi?
- 2) Insonga qaysi fazilat yaxshi – yu, qaysinisi yomon?
- 3) Sen o'zingdagi qaysi odatlarni yo'qotish kerak?
- 4) Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lasan?

Degan savollar bilan murojaat qilganimiz MTM tarbiyalanuvchilari o'zlari yoqtirgan ertaklari va qahramonlarini aytib beriladi. Tarbiyachilarga ham savollar bilan murojaat qildik.

1. Bolaga qanday kitoblarni, ertaklarni hikoyalarni o'qishni, o'rganishni maslahat berasizmi?
2. Bolalar ko'pincha qanday ertaklarni eshitishni xohlashadi:

O'zingiz qanday badiiy adabiyotlar o'qiysiz. Bolaga hikoya va ertaklarni qaysi metod va usullar bilan tushuntirasiz? Deb murojaat qildik.

Shunda tarbiyachilar bolalar ko'proq o'zbek milliy ertaklarini yoqtirishini, shu qahramonlari, Zumradga, Baxtiyorga, Oyg'ulga, Uch og'ayni botirlardagi kenja o'g'ilga va boshqalarga.

Bolalarga hikoya qilib, berish usuli, orqali tushuntiramiz deb javob berishdi. Biz javoblarni eshitib Tarbiyachilarga seminar, ma'ruzalarni tashkil qilib berdik.

Bolajonlarga esa mashg'ulotlar jarayonida kitobga mehr uyg'otishni maqsad qilib oldik. Va ko'zlangan maqsadimizga erishdik. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga kitobxonlikka mehr uyg'otish, tarbiyachi va ota –onalarga bog'liqdir.

XULOSALAR

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga o'lgan hissa qo'shadi.

Badiiy adabiyot she'riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini – hamdarlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolari nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar.

Nozik yumor, sanoq she'rlar, hazil-huzullarni o'zida jamlagan xalq asarlari dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm) kabi sifatlarga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatishning ob'yektiv vositasi hisoblanadi.

Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

Ilk yoshdagi bolalarning (1-3 yosh) badiiy asarlarni qabul qilishlarining asosini ularning badiiy asarlarga nisbatan emotsional munosabati, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, qahramonlarni tanish va ular haqida qayg'urish qobiliyatlari tashkil etadi.

Ushbu yosh bosqichida bolalar bog'chasi va oilaning vazifasi – bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini hozirlash, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Kattalarning (pedagoglar, ota-onalar va boshq.) badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilib berish jarayoniga emotsional qo'shilishlari ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarni hamda unga nisbatan munosabatni rivojlantirish zarur.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bola (3-5 yosh) san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallash borasida keng

imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu yoshda emotsional munosabat bildirish va syensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bola syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratgani holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydi. Ayni paytda u uni to'qib to'ldiradi, ayrim lavhalarni takomillashtiradi, o'z ertaklarini to'qiydi, adabiy janrlarni (ertak, hikoya, she'r) farqlay boshlaydi, tilning ayrim ifodali vositalarini ko'rishga qodir.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga oid pedagogik ishlarni ikki yo'nalishda olib borish lozim. 1- badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'yekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan. 2 - ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nychta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularda qahramonlarga qayg'urish va hamdard bo'lish; voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turi xil mazmunli aloqalar o'rnatish; qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni ko'rish va tushunish qobiliyatlari paydo bo'ladi.

Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikki qarama-qarshi tamoyilning ziddiyatli birikuvi ularning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi: 1-yuqori ijodiy salohiyat, 2-taqlidchilik va me'riylikka intilish.

Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolaning badiiy asar bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish potentsialini amalga oshirish imkonini beradi.

Dialog – maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar bilan pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo'lishi lozim.

Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug'atga, ravon nutqqa ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamiz ahaolisining yarmini yoshlar tashkil etish, tariximiz milliy an'analarimiz, qadriyatlarimizning tiklanishi, yoshlarda o'zlashini bilishga bo'lgan

hissiyotning kuchayishi xilma –xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojning kuchligiga, jamiyatning davrning tezkor rivojlanishiga munosib, hozirjavob bo'lishida axborot vositalari va matbuotning o'rni beqiyos.

Tavsiyalar

1. Kitobni mashg'ulotlar orqali avaylashga o'rgatish;
2. Ertaklar va hikoyalar orqali kitobsevarlikka o'rgatish;
3. Kutubxonalar va kitob do'konlariga ekurskursiya uyushtirish;
4. Tadbir va tanlovlar orqali kitobxonlikka o'rgatish;
5. Turli didaktik o'yinlar orqali kitobxonlikka o'rgatish;
6. Maktabgacha ta'lim muassasalari oila hamkorligini tashkil etish;
7. Televedeniya ko'rsatuv va eshitirishlardan foydalanish;
8. Maqollar va tez aytishlar orqali kitobsevarlikga o'rgatish;
9. Kitobxonlikka o'rgatishda rasmlı kitoblardan unumli foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishi ostonasida" Toshkent.: 2011 yil
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas –kuch Toshkent.: 2008yil
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent.: 2009yil
4. Akramov Sh., Boshmonov M., Mamadiyeva M.. «Hozirgi o'zbek adabiy tili(sintaksis) fanidan konspektiv kurs» 1- qism. FarDU 2004.
5. Abdurahmonov G'.. Hozirgi o'zbek tili grammatikasi (Sintaksis), T. , «O'qituvchi», 1996.
6. Berdialiyev A.. O'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplarida sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar. T. , 1993.
7. Byuler K. Teoriya yazıka. –M.: Progress, 1993. Rashidova M., Yo'ldoshev E. Kitoblar olami uslubiy qo'llanma. Toshkent.: 1987y
8. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti, 2002y
9. Ergashev, Yo'ldoshev E. Kutubxona va kitobxon. Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti. 2008y
10. Etamov X. Bolalar kitobi va ma'naviy kamolot. Toshkent.: O'qituvchi nashriyoti, 1981y
11. Xasanboyeva O va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. Toshkent.: 2006 yil
12. Qodirova R.M.. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruxiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.
- 13.. Kodirova F.R. Didakticheskiye igrы dlya obucheniya detey russkomu yazıku. Tashkent, «Ukituvchi», 1992.

14. Qodirova R.M. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.
15. Qodirova F.R.. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish (metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1997.
16. Qodirova F.R.. Qodirova R.M. «Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi». T., «Sano-Standart», 2004.
17. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik – T.: "Talqin" 2005
18. Rahmatullayev Sh. "Hozirgi adabiy o'zbek tili" - T.: "Universitet", 2006.
19. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1992
20. O'zbek tili grammatikasi. 2- tom. Sintaksis, T. , 1976
21. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis, T. , «O'qituvchi», 1987.
22. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T. , 1992.
23. Mahmudov N.. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik- sintaktik assimetriya. T. , 1984.
24. Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap bo'laklari tipologiyasi. T. , «O'qituvchi», 1988.
25. Sayfullayeva R.. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning formal-funksional talqini. T. , «Fan», 1996.
26. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2- kitob, Sintaksis, T. , 1966.
27. Verbitskaya L.A. Davayte govorit pravilno. M.: Vysshaya shkola, 1993.
28. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. M.: Lobirint, 1996.

29. Leontev A.A. Psixologiya obshcheniya., -M.: Smys, 1997.

30. Serio P. Filosofiya yazyka. –Kiyev., 1993.

31. www.Ziyo.net

32. <http://www//uralrti.ru>.